

INGLIZ VA O‘ZBEK ANTROPONIMLARINING AXLOQIY-TARBIYAVIY MOTIVLARI

M.Amonov

*Farg‘ona davlat universiteti,
f.f.f.d.*

Nigmatova Nozimaxon

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada antroponimlarni o‘rganishning jahon tilshunosligida xususan, ingliz va o‘zbek antroponimlarning axloqiy-tarbiyaviy motivlari ochib berishi bilan bog‘liq va antroponimlarning motivatsiyasi sohasidagi taqqoslangan tillar o‘rtasidagi chuqur tarkibiy farqlarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *til, antroponim, lingvistika, motiv, motivatsiya, struktura, onimizatsiya, antropotsentrizm.*

Kirish. Kishilar qadimdan inson tili fikrlash va o‘zaro muloqot quroli bo‘libgina qolmasdan odamning fazilat va sifatlarini, madaniy-ma’naviy dunyosini, axloqiy hislatlarini o‘zida ifodalab, namoyon qilib turadigan tengsiz mo‘jiza deb bilishgan. Shu sababli bizning o‘tmish ajdodlarimiz tilning mana shu qudratiga doimo e’tibor berishgan, tilni odamni tarbiyalashning eng zarur va ta’sirchan quroli deb hisoblashgan. Til yordamida yuzaga kelgan yaxshilik yoki yomonlik hech qachon unutilmaydi.

Inson tili beqiyos qudratga ega. Abu Nasr Forobiy shunday yozadi: ”Odamzod ibtidosidan bo‘lmish quvvatlar - so‘zlash quvvati, tanlash quvvati, hayol quvvati, sezish quvvatlaridir. Bulardan so‘zlash quvvati yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go‘zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo‘lgan-bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli yoki foydali narsani, lazzatli va achchiq narsa- larni fahmlaydi”.(1)

Antroponimlar tarixan va hozirgi kunda ham magik qarashlar bilan bog‘liq motivatsion xususiyatlarga ega. Bu, ayniqsa, folklor (xalq og‘zaki ijod)da yorqin aks etadi. Masalan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunasi ”Go‘ro‘g‘li” eposida ham shu jihatni ko‘rishimiz mumkin. Chunki ”Go‘ro‘g‘li” dostonidagi antroponimlarning aksariyati magik va diniy qarashlar bilan bog‘liq. Ingliz fplklarida esa ”Beowlf” (Biavulf) epik poemasidagi antroponimlar tarixan va hozirgi kunda ham magik qarashlar bilan bog‘liq motivatsion xususiyatlar mavjud. ”Beowlf” (Biavulf) epik poemasida qahramon nomlar haqida jiddiy munozaralar paydo bo‘ldi.(2) Ushbu asar ingliz, skandinav va nemis onomastikasining korpusi ya’ni asos sifatida tadqiq etiladi. Tildagi atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lishi, motivativ asoslarini, semantikasi, lisoniy strukturasi tilshunoslik- ning onomastika bo‘limi tadqiq qiladi. Onomastika - aslida grekcha so‘z bo‘lib, ”nom berish san'ati” ma’nosini bildiradi. (3)

Asosiy qism. Shu narsa xarakterliki, axloq motivi har ikkala tilda ingliz va o‘zbek antroponimiyasi tizimlarida ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Har ikki xalqda kishilar o‘z o‘gil va qizlariga ism qo‘yar ekan, farzandining sog‘-u salomat ulg‘ayib, axloqli, odobli inson bo‘lib etishishini orzu qiladi va ushbu umid va istakni bolaga berilayotgan ismda ifodalaydi.

Ushbu e’tiqod va ishonch ham ingliz ham o‘zbek xalqlari orasida hozirda ham saqlanib turibdi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi axloq-odob, jasurlik, mehr-muruvvat motivi bilan bog‘liq ismlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Aqlli va zukka bo‘lsin:

Inglizlarda; Alfred, Alvie, Alberta, Elvis, Michiko, Sage.

O‘zbeklarda; Aql, Aqlbek, Aqlloy, Oqil, Oqila, Dono, Donoxon.

2. Yaxshi, munosib inson bo‘lsin:

Inglizlarda; Adiv, Agacia, Calia, Ebele, Evangeline.

O‘zbeklarda; Yaxshiboy, Yaxshimurod, Yaxshi- gul, Yaxshiqiz, A’lo, A’loxon, Ma’qul, Ma’quloy, Maqbuloy.

3. Axloq va odob bobida etuk bo‘lsin:

Inglizlarda; Amy, Georgia, Emma, Charlotte, Grace, Sophie

O‘zbeklarda; Dilkash, Mo‘min, Mo‘mintoy, Qobiljon, Insof, Insofli

4. Mehrli, mehribon odam bo'lsin:

Inglizlarda; Adela, Adelina, Alma, Zia, Heidi.

O'zbeklarda; Ahiljon, Mehrli, Mehribon, Vafodor.

5. Kamtarin, vazmin, sabrli odam bo'lsin:

Inglizlarda; Paxton, Frederick, Geoffrey, Olive, Dove, Galen, Serena

O'zbeklarda; Yovvosh, Sokin, Sokina, Kamtar.

6. Kuchli, chidamli, irodali bo'lsin:

Inglizlarda; Leo, Anders, Griffin, Matilda, Valentina, Audrey, Bernard.

O'zbeklarda; Bardosh, Irodaxon, Azamat, Zo'rboy, Miqliboy, Zabardast, Polvon.

7. Sezgir, chaqqon, epchil bo'lsin:

Inglizlarda; Bond, Gatik, Hector, Arvan, Festus.

O'zbeklarda; Chaqqon, Jo'shqin, Jo'shqinoy, Ildam, Ziyrakxon, Mohir, Mohira, Shiddat.

8. Jasur, qo'rqmas, dovyurak bo'lsin:

Inglizlarda; Archie, Audrey, Everett, Leonardo, Wyatt, Bridget.

O'zbeklarda; Botir, Bahodir, Qahramon, Jasur, Jasura, Mard, Mardona, Toymas, Qaytmas.

9. Odil, xaqgo'y, rostgo'y bo'lsin:

Inglizlarda; Honesty, Alvara, Alice, Verity.

O'zbeklarda; To'g'ri, To'g'rijon, Adolat, Chinboy, Chinqul, Chinyigit, Chinkora, Xolis.

10. Saxiy, saxovatli bo'lsin:

Inglizlarda; Eudora, Lilo, Gennady.

O'zbeklarda; Tantiboy, Hotam, Hotamtoy .(4)

Antroponimik tizimdagi shakliy va ma'noviy o'zgarishlar, ba'zi original yasalmalar, antroponimik modellar, ismlarga sabab bo'ladigan motivlarning xilma-xilligi bu tizimning rivojlanish tarixini ifodalaydi. Antroponimika mana shu muammolarni tilshunoslik va nolisoniylik jihatidan tadqiq qiladi. Bordi-yu, ba'zi tilshunoslar ilgari surayotganidek, antroponi- miya original xususiyatga ega bo'lmasa, tilning o'ziga xos sathi, til lug'aviy boyligining bir qismi bo'lmasa, antroponimika ilmiy

soha sifatida nega mavjud, uning ilmiy tadqiqi, obykti, maqsadi nimadan iborat deyilgan savollarga javob berishga to'g'ri keladi.(5)

Antroponimiya kammurakkab deyish mumkin. Bu xil ismlar motivining bolaga nom qo'yishda qayta-qayta eslab turilishi bilan bog'liq. Bunday eslash bir qator oilalarda ko'p bor takrorlanadi. Ko'pchilik ismlarni motivativ asosi aniq, shunga ko'ra nominativ ma'nosi ham aniq sezilib turadi. Antroponimiyada etimologik kuzatishlar ko'pincha ism uchun asos bo'lgan apellyativga yoki ism qo'yilishining etnografik rasm-rusumlariga borib taqaladi.

Avvalo, siyosiy-iqtisodiy sharoit, xalqning madaniy-ma'naviy, etnik tasavvurlari o'zgaradi, bu muayyan davrning xususiyatini belgilaydi. Shunga ko'ra tarixiy davr ajratiladi. Xalq hayotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va moddiy, madaniy-etnik omillar ism berish an'ana va udumlariga ta'sir o'tkazadi, muayyan yangi ismlarning paydo bo'lishi, an'anaviy nomlar ma'nosidagi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu hol oldingi darda sifatiy jihatdan farqlanadigan ismlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu ismlar yig'indisi antroponimiya fondida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'la olsagina, miqdoran ma'lum salmoqqa ega bo'lsagina yangi antroponimik qatlamni shakllantiradi.

Xulosa. Demak, qatlam tarixiy-lisoniy jarayonlar hosilasidir. Shu sababli antroponimiyani davrlashtirishda ijtimoiy-siyosiy hayotdagi madaniy-ma'naviy qarashlar, etnik an'analardagi o'zgarishlarga asosiy tamoyil va omil bo'la oladi.

Ismlarga har kim o'z bilganicha munosabatda bo'lishi, uning to'liq shaklini xohlaganicha buzib talaffuz qilishi, shaxsning rasmiy hujjatlarida ismni turli shakllarda yozish va boshqalar nomning asl shakli o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bunday holat nomning ilk motivini xiralashtiradi yoki unutilishiga sabab bo'ladi, ya'ni demotivatsiya yuzaga keladi.

Tarbiyaning muhim mo'jizasi bo'lgan insonning xislatlaridan biri - pokiza, halol, gunohlardan xoli bo'lishidir. Kishilar farzandining ulg'ayib mana shunday odam bo'lishini istashadi va ushbu istak bir guruh ismlarga motiv bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Тошкент, 1993. 188-бет.

2.Names and Naming in Beowulf: Studies in Heroic Narrative Tradition, by Philip A.Shaw, London, Bloomsbury Academic, 2020, 232 pp.

3.Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. С. 96.

4.E.Begmatov "O'zbek tili antroponimikasi" O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent 2013, 166 b.

5.E.Begmatov "O'zbek ismlari izohi" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti 2016, 100 b.

6. Gulnoza Zaynutdinova. Metaphor and its artistic-linguistic role in the work of Shuhrat Arif. New Renaissance. MODERN SCIENCE AND RESEARCH. 2025/12/20. В. 228-232.

7. Сапарниязова М. Эргонимларда маданий код масалалари // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2023. С. 469–473.

8. Лутфуллаева, Д.Э., & Сапарниязова, М. (2020). Neyming: Technology of creating a name in the language. *Иностранные языки в Узбекистане*, (6), 1-10.

9. Saparniyazova, M., & Sabirova, M. (2023). National and Cultural Features of Creating a Name (Naming) in the Language. *Journal of Law and Sustainable Development*, 11(12), e2378-e2378.

10. Ismailov, G. M. (2017). Linguocultural Study of Gender Stereotypes in Turkic Phraseology (on the Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages). *Polylinguality and transcultural practices*, 14(1), 85-92.

11. Ismailov, G. M. (2017). Linguocultural Study of Gender Stereotypes in Turkic Phraseology (on the Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages). *Polylinguality and transcultural practices*, 14(1), 85-92.

12. Ismailov, G. Anthropocentrism In Phraseological Picture Of World (On The Example Of Uzbek, Kazakh And Karakalpak Languages). *中国湖州* 2022 № 4 (13), 137.

13. Азмиева, Э. Э. (2021). Активизации интереса обучающихся к детской литературе как элементу народной культуры. In *Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога* (pp. 182-185).

14. Xujaev, M. I. (2020). EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5| Issue: 8| August 2020-Peer Reviewed Journal.

15. Xujaev, M. I. (2015). Некоторые особенности этических взглядов Axmet-Zaki Validova. *Credo new*, (2-2), 3.